

UNUTILGAN SALTANAT – G'URIYLAR DAVLATI

Abdug'aniyev Shohjahon

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy Universiteti tarix fakulteti talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'rta asrlarda mavjud bo'lgan G'uriylar sulolasining kelib chiqishi, shakllanish va rivojlanish jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, davlatning vujudga kelishida hukmdorlarning tutgan o'rni va qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Maqolada G'uriylar davlatining tashkil topish jarayonida G'aznaviylar va Saljuqiylar kabi davlatlar bilan bo'lgan siyosiy munosabatlari hamda harbiy yurishlari ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, o'rta asr yozma manbalari va zamonaviy tarixshunoslik asosida G'uriylar davlatining Markaziy Osiyo tarixidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar. *G'ur, Hilmand, Dimavand, Zar-i-Marg, Shaknan, Bamian, Hindiston, ajriston, Ohangaron, Firuzkoh, Xorazm.*

KRISH

G'uriylar davlati – Markaziy Afg'onistonning tog'li G'ur viloyatida joylashgan. XII-XIII asrlarda Sharqda qudratli saltanatga aylangan o'rta asr islom davlatidir. G'ur hududi hozirgi Afg'onistonning Hirot shahridan janubi-sharqda, Hilmand daryosi vodiysidan shimoli-g'arbda o'rnashgan. G'uriylar dastlab, buddizm e'tiqodida bo'lgan, ammo 1011-yilda G'aznaviylar hukmdori Mahmud G'aznaviy tomonidan G'ur hududi bosib olinganda so'ng, G'uriylar Abu Ali ibn Muhammad (1011-1035) boshchiligida islom dinining sun'iy mazhabini qabul qilganlar. XII asrning o'rtalarida mustaqillikga erishgan G'uriylar qisqa vaqt ichida g'arbda Kasbiy dengizidan sharqda Hindistonning Bengal viloyatigacha bo'lgan ulkan hududni o'z tasarrufiga olgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

G'uriylar haqida ma'lumotlar IX-X asrlarda arab va fors mualliflari asarlarida uchraydi. Tarixchi Muqaddasiy G'urdan boshlanuvchi daryolar haqida gapirar ekan, uning joylashuvini quyidagicha ta'riflagan: "G'ur mamlakatining to'rt tomonidan Marv, Hirot, Seiston va Balx daryolari oqib chiquvchi vodiylar deb ta'rif beradi". Shunga o'xshash manbalardan ko'rinib turibdiki, G'ur aholisi xo'jaligining asosiy tarmog'i dehqonchilik bo'lgan, lekin shu bilan birgalikda aholi chorvachilik bilan ham shug'ullangan. Juzjoniylar IX-X asrlarda sodir bo'lgan voqealarni tasvirlar ekan, G'ur qabila va urug'lari o'rtasida kelishmovchilik, doimiy to'qnashuvlar haqida gapiradi. G'urning ayrim hududlarini boshqargan mayda bekliklar XI asrgacha hali ham asosan faqat qabila boshliqlari sifatida faoliyat yuritgan. Shunday qabilalardan biri Shansabinanlar edi. Bu qabilaning asoschisi Shansab bo'lganligi uchun ular Shansabinanlar deb ham ataladi. Shansabinanlarning qadimgi hukmdorlaridan biri Zuhakdir. Minhojiddin Juzjoniylarning "Taboqot-i Nosiriy" da yozishicha katta ehtimol bilan Zuhak xalifa Ali davrida yashab, uning qo'lidan dinga kirgan va shu xalifadan farmon va bayroq olib, taxtga

o'tirgan. Zuhak Eronning qadimgi shoxlaridan biri sifatida tilga ham tilga olinadi. Zuhak uzoq vaqt hukmronlik qilgan. Hukmronligining so'ngi yillarida Afridun Zuhakni qo'lga oldi va Iroqdagi Dimavand tog'idagi chuqurga qamab qoydi. Zuhak asirdaligida Afridun Hindistonni egallash uchun qo'shin yubordi. Bu vaqtda Zuhakning avlodlaridan Bustam Malik Hindiston hukmdori edi. Afridun kuchlariga qarshi turishga qodir bo'lmagan Bustam Shaknan va Bamian tog'li hududlariga chekinadi va bu hududlarni egallaydi. Afridun qo'shinlariga Bustamni qidirish buyurildi. Bustam Afridun q'shinlaridan chekinib G'ur tog'li hududlariga keldi va Zar-i-Marg etagida o'z qarorgohini qurdi. Bundan Afridunga habar yetkaziladi. Afridun bu safar Bustamning izdoshlarini yo'q qilish, Bustamning o'zini esa asirga olish maqsadida qo'shin yuborishni hohlagan. Ammo Afridunning o'g'illari Tujz va Salm xiyonat yo'li bilan Eron hukmori akalari I-rajni o'ldirishgan. Afridunning bunday holatdan yuragi qattiq qayg'uga botgan edi. Shu sababli u Bustamdan qasos olmadi. Bustam esa bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalanib o'z e'tiborini G'ur tog'li hududiga qaratib, bu hududni yashashga yaroqli qilish va aholini joylashtirishga kirishdi.⁹

U Shoh Afridunning huzuriga ishonchli vakillarini yuborib tinchlik so'radi. Afridun Bustamning iltimosini bajardi. Keyin esa ular bu hududdagi qadimgi butxonalar o'rnida minglab majsidlar qurib, Islom qonunlarini Chin hududiga tutashgan Hindiston mintaqasining eng chekkasiga qadar joriy qildilar.

Shansabi sulolasining sultonlari to'rt guruhga bo'lingan:

- I. Firuzkoh markazdagilar.
- II. Bamiyon tarmog'i.
- III. G'azna hukmdorlari.
- IV. Hindistonga o'tgan hukmdorlar.

Pulod Malik Shansabinning o'gillaridan edi, u G'ur tog'li hududlarini o'z tassarufiga oldi va otalarining ismini abadiylashtiradi. U uzoq vaqt davomida Mandesh ustidan va G'ur tog'li hududlari ustidan hukmronlik qilgan. U vafot etgandan so'ng hokimiyatni Akasining o'g'illari egallaydi. Keyinchalik esa Naharanning o'g'li Amir Banji hokimiyatni egallaydi. Amir Banji G'urning eng buyuk va mashxur maliklaridan biri hisoblanadi. Amir Banji nihoyatda kelishgan, ajoyib fe'l atvorli va yaxshi fazilatlar ega edi. U G'uriy avlodidan Abbosiy xalifalari saroyiga borib ahd va bayroq olib kelgan birinchi shaxs edi. Uning xalifa Horu-ar-Rashid huzuriga borishining sababi G'ur hududida Shisoniyon deb nomlangan bir qabila bor edi. Amir Banji davrida Shisaniyon qabilasining boshlig'i Bahrom o'g'li Shis isimli amir edi. Bu qabilani bu amir nomi bilan Shisaniyon deb atashadi. Amir Banji va Shis o'rtasida G'ur hukmronligi borasida nizo kelib chiqadi va o'sha hudud aholisi ortasida tartibsizlik boshlanadi. Ikkala tomon ham amirlar, Banji va Shis, xalifa huzuriga borishlari va Xalifalik sudidan kim ahd va bayroq olib kelsa, o'shani amir deb tan olishlariga kelishib olishadi. Xalifalik taxtida o'sha paytda Horun-ar-Rashid edi.

⁹Minhaj-I Siraj Juzjani. "Tabaqat-I Nasiri". Dehli. "Oriental Publishers, Booksellers"- 2004

Ikkala amir ham Xalifa huzuriga boradi. Bahrom o'gli Shis uyda kishiga odatlangan kalta G'urlan kiyimlarida borganida, Amir Banji esa yahudiy savdogari yordami bilan xalifa poytaxtiga amirga yarasha libosda kirib, ulug' insonga aylandi. Ikkalasi ham xalifaga istak va talablarini bayon qildilar. Xalifa Horun-ar-Rashid ikkila tomonning ham talablarini ko'rib chiqib, Amir Banji xalifalikdagi go'yoki butun G'urlar hukmdori sifatida ma'qullagan, Shisni esa mamlakatning barcha harbiy kuchlari boshlig'i etib tayinlaydi. Keyinchalik, Juzjoniyning fikricha, G'urda hokimiyatning bunda bo'linishi bu ikki qabila vakillari uchun an'ana tariqasida saqlanib qolgan.

G'aznada hokimiyat tepasiga Sobuqtegin kelgandan so'ng, bir necha bor G'ur hududiga hujum qilib, o'z ta'sir doirasini G'urning sharqiga qadar uzaytirgan edi.¹⁰ Buning natijasida G'ur hokimi Muhammad ibn Suriy unga tobe bolib qolgandi. Sobuqteginning o'limidan keyin Ibn Suriy G'aznaviylarga nisbatan dushmanlik harakatida bo'la boshlaydi. Suriy ba'zida Mahmud G'aznaviyga itoat qilgan, ba'zida esa isyonkarona harakatlar qilib, Mahmudning xalqiga ziyon keltiradi. Suriyning bu harakatlariga qarshi 1011-yilda Mahmud harakat boshlaydi. Mahmud dastlab ikki buyuk amirlarini – Oltuntosh va Arslon Jozibni yubordi. Sultonning o'zi ham Bust shaxridan G'ur tomon yo'lga chiqdi. G'aznaviylar qo'shining kelayotganini bilgan g'uriylar tog'larga chekinib mudofaa choralari ko'rdilar. Ular Oltintoshni tor vodiya mag'lubiyatga uchratdilar. Sulton Mahmud o'z qo'shining qiyin ahvolga bilgach, kichkina yoshda bo'lgan ikki o'g'li Ma'sud va Muhammadni ukasi Yusuf bilan Zamindavr shaxrida qoldirib, o'zi G'ur viloyatining poytaxti Ohangaron shaxriga yurdi. Muhammad ibn Suriy o'n ikki ming qo'shin bilan Sultonga qarshi turushga harakat qildi. Tushgacha davom etgan jangda sulton yolg'ondan chekinish qilib, g'urlarni tog'li joydan qishloq joyga chiqarishga muvaffaq boldilar. Bu yerdagi jangda G'aznaviylar qo'shini G'uriylarni ustidan g'alaba qozondi. Ibn Suriy va o'g'li Shis sulton Mahmud qo'lga asir tushdi va G'aznaga yuborildi. Mahmud G'aznaviy G'ur hukumatini Ibn Suriyning yana bir musulmon o'g'li Abu Aliga topshirdi. Lekin ibn Suriy asirlikdan o'limni afzal ko'rib uzugidagi zaharni ichib vafot etdi. Abu Ali hokimiyatga kelishi bilan ko'plab obodonchilik ishlarini amalga oshirdi, Jumladan Jome masjidini qurdi. Abu Ali davrida aholi tinch va osoyishta hayot kechirgan. Abu Ali hukmronligining so'ngi yillarida Amir Shisning o'g'li Abbos qo'zg'olon ko'tarib, amakisi Abu Alini qo'lga oldi va butun G'ur mamlakatini o'z ta'siriga oldi. Amir Abbos odamlarning mol-mulkini tortib olib, ko'plab zulmlar qildi. Biroq bu zulmlarga qaramay, u astrologiyani chuqur bilgan va bu fanga katta e'tibor bergan. Madesh o'lkasida Bustam-i- Zuhak asos solgan qal'ani butunlay qayta qurish uchun ko'plab mohir hunarmandlar jalb qiladi. Qal'a devorlarini Zar-i-Margh tog'i cho'qqisidagi mustahkam joyga ko'chirib, Tog' etagida 12 minoradan iborat qasr qurdiradi. Har bir minorada 30 tadan teshik bo'lib, ular osmon burchlariga mos kelgan. sharq va shimolda 6 tadan, g'arb vajanubda 6 tadan minora belgilangan. Teshiklar shunday joylashtirilganki, har kuni quyosh o'z burjiga mos teshikdan porlagan. Shu yo'l bilan Amir Abbos quyosh qaysi burjda ekanligini bilgan. Bu uning astralogiyadagi mahoratidan darak

¹⁰ Nazarbek Rahim. "Markaziy Osiyo ilk islomiy tarixdan lavhalar" Ilmiy – omabop nashr

beradi. Bundan tashqari uning hykmronlik davrida G'urda yana ko'plab qasrlar qurilgan, mamlakatda mo'l ko'lchilik bo'lgan. Ammo odamlar uning zolimligidan nafratlangan. Amir Abosning zulm va adolatsizliklaridan charchagan aholi G'aznaviylar hukmdoriga g'ur zodagonlari boshchiligida yordam so'rab xat yuborishadi. O'sha vaqtda G'azna hukmdori Ma'sudning o'g'li Ibrohim edi. Sulton Ibrohim bu iltimosni qabul qilib, G'urga qo'shin yubordi, qo'shin G'urga kelgach u yerdagi barcha qo'shin Sulton Ibohim qo'shiniga taslim bo'lib, Amir Abbosni sultonga topshirdi. Sulton buyrug'i bilan Amir Abbos qamoqqa olinib G'azniga olib ketildi. G'ur hududi esa Amir Abbosning o'g'li Amir Muhammadga berildi. Amir Muhammad G'aznin sultonlariga sadoqat bilan xizmat ko'rsatib, muntazam ravishda o'lpon jo'natib turar edi. Amir Muhammad davrida ham aholi tinch osoyishtalikda yashaydi. Amir Muhammad vafotidan so'ng G'ur taxtiga amir Muhammadning o'g'li buyuk g'ur sultonlarining bobosi Malik Qutbiddin o'tiradi. U shafqatsizlarcha harakat qilib, turli norozilik va fitnalar keltirib chiqarayotgan guruhlarini qattiq jazolashni o'z zimmasiga oldi. Malik Qutbiddin Hasan qabilasi qo'zgonini bostirish vaqtida kamon o'qidan yaralanib vafot etdi. Malik Qutbiddining vafoti ko'rgan uning tarafdorlari qo'zg'olonchilarning hammasini qilichdan o'tkazib, qo'zg'olonchilar qal'alarini vayron qilishdi.¹¹

Malik Qutbiddin vafot etgandn so'ng uning o'g'li Malik Izuddin Husayn o'tiradi. Malik Izuddin Saljuqiylar hukmronligiga qattiq bog'langan edi. U har yili Sulton saroyiga zirhlar, sovutlar, po'lat qalpoqchalar va boshqa jihozlarni yuborib turardi. Malik Izuddin G'azna hukmdorlari bilan ham yaxshi aloqalar o'rnatgan edi. G'ur sultonlarining otasi hisoblanmish Malik Izuddin Husayn vafotidan so'ng, otasining o'rniga Sulton Saifuddin Suriy taxtga o'tirdi. Sulton Suriy Istiyo qal'asini o'zining poytaxtiga aylantirdi. U otasining hukmronliklarini aka-ukalari o'rtasida taqsimladi. Biroq keyinchalik aka-ukalar o'rtasida nizo kelib chiqadi. Malik-ul-Jibol birodarlaridan ranjib G'aznaga ketadi. G'aznada o'sha paytda Bahrom Shok hukmronlogi davri edi. Ammo Malik-ul-Jilob G'aznada fitnaga uchrab vafot etadi. Shu sababli, Mahmudiy oilasi, Shansabiy oilasi va Zuhak avlodlari o'rtasida adovat va nafrat paydo bo'ldi.

Malik-ul-Jilob bilan bo'lgan voqealardan Sulton Izuddin Suriy habar topgach, G'aznaga qo'shin yuborib, uni fatx etadi. Sultun Izuddin Suriy bu oilada birinchi bo'lib G'azna taxtiga o'tirgan va sulton nomini olgan edi. Sulton Izuddin Suriy vafotidan so'ng taxtga katta o'gli Bahouddin o'tiradi. Malik Bahouddin davri tinchlik va osoyishtalikda o'tdi. U Kidonda vafot etadi. Taxtga esa Sulton Alouddin o'tiradi. U ikki jiyani G'iyosuddin va Shahobiddinni Vajriston qal'asida qamoqqa oladi. Sulton Aluddindan keyin taxtga o'tirga Sulton Sayfuddin ularni ozod qiladi. G'iyosuddin Sulton Sayfuddinga sadoqat bilan xizmat qiladi. Ukasi esa otasining amakisi Malik Faxruddin huzuriga Bomiyonga ketadi. Sulton Sayfuddin vafot etgach, G'ur va G'arjiston qo'shinlarining amirlari va malikari yig'lib, G'iyosudinni taxtga ko'tardilar. Ukasi Shahobiddin bu voqeadan habar topgach Firuzkoh shaxriga keladi. Akasi unga Sar-i-Jandar lavozimiga tayinlab, Istiyo hamda Kajuron hudularini uning ixtiyoriga topshirdi.

¹¹ Minhaj-I Siraj Juzjani. "Tabaqat-I Nasiri". Dehli. "Oriental Publishers, Booksellers"- 2004

G'iyosudinning hokimiyatga kelganidan habar topgan Bomiyondagi amakisi Malik Faxruddin undan taxtni tortib olishga harakat qiladi. Ammo bu harakat Malik Faxruddin mag'lubiyati bilan yakunlanadi. Sulton bu kabi ichki nizolarni bartaraf etgach 1174-yil G'azna shaxrini egallaydi. Sulton G'iyosuddin ukasi Sulton Shahobiddinni G'azna taxtiga o'tqazadi. Ikki yildan keyin esa Sulton G'ur va G'azna qo'shinlari bilan birgalikda Hirot shaxrini zabt etadi. 1178-yili Fushanj bosib olinadi. Bu muvaffaqiyatli yurishlardan so'ng, Nimroz va Sijistonlik Malik elchi yuborib Sulton G'iyosuddinga tobe ekanligini bildirdi. Bundan tashqari Kirmondagi G'uz Maliklari va Xurosonning Hirot va Balxga qarab bo'lgan turli qismlari Sulton ixtiyoriga o'tdi. Zabt etilgan barcha hududlarda Sulton nomi xutbaga qo'shib o'qildi. Sulton nomidan tangalar chiqarildi.

Xorazmshoh El Arslon o'g'li Sultonshoh Mahmud akasi Takish tomonidan taxtdan ag'darilgach u Sulton G'iyosuddin saroyiga kelgan edi. Keyinchalik u Marvni egallab, G'urning chegara tumanlarini vayron qila boshlaydi. Bundan habar topgan Sulton G'iyosuddin 1192-yil Sultonshohga qarshi yurish qiladi. Ikki o'rtadagi jangda Sultonshoh qo'shinlari tor mor etildi. 1200-yili Sulton Aloudin Takish Xorazmshoh vafot etganidan foydalangan aka-uka G'iyosuddin va Shahobiddin G'uriy va G'aznada qo'shin to'plab Nishopur shaxrini egallashdi. Nishopur hokimligi Sulton G'iyosuddining kuyovi Malik Muhammad Ziyouddinga berildi. 1201-yili esa Marv shahei egallandi. Marvga Muhammad Xarnak hokim qilib tayinlandi Saraxs hokimligini amakisining o'g'li Malik Tojuddinga topshirishdi. Xorazm taxtiga Muhammad Xorazmshoh (1200-1220) kelgach Sulton G'iyosuddin saroyiga elchi orqali "... Biz hozir otamiz ta'zivalari bilan va mamlakat ishlarini tartibga solish bilan mashg'ul bo'lib, sizning ishlaringizga qarshilik qilolmagan edik. Edi biz zaif emasmiz va sizning mamlakatingizni va boshqa viloyatlarni bosib olishga kuchimiz yetadi"¹² shunday deb yozgan edi. Yana Xorazmshoh maktubida G'iyosuddinning keksayib, kasalmand bo'lib qolganiga ham urg'u bergan edi. Maktubiga javob kelishini ham kutmagan Xorazmshoh 1201-yilning avgustida Hirotni 40 kun qamal qiladi. Ammo ishg'ol qilishning iloji bo'lmadi. Shu payt Shahobiddin G'uriy Hindistondan o'z qo'shini bilan yetib kelib, Xorazmshohga qarshi chiqadi. Ikki tomon ham katta talofat ko'radi. Shahobiddin G'uriyning Xorazm yerlariga kirib kelish yo'lga to'siq qo'yish maqsadida Marvirud daryosi ko'priklari buzib tashlandi. Shundan so'ng xorazmshoh Marv, Nishopur, Saraxs shaxarlarini egalladi. 1203-yilning boshida G'ur sultoni G'iyosiddin G'uriy vafot etgach. Uning davlatida toj-u taxt masalasida nizolar boshlanib ketdi. Bu nizolarni bartaraf etishga muvaffaq bo'lgan Shahobiddin G'uriy Xorazm tomon yurishga otlandi. Xorazmliklar suv to'g'onini buzib tashasa-da, lekin g'uriylar yer qurishini 1 oy kutib Qorasuv anhoiri bo'yida xorazmshohlar qo'shiniga zarba berdi. Shahobiddin boshchiligida g'uriylar Gurganj shahrini qurshab oldi. Xorazmshoh esa Qoraxitoylar xoni Huyurxondan yordam so'raydi. Huyurhon O'tror hokimi Tojiddin, qoraxoniylar xoni Usmonxon va Tarozi hokimi Tayangular boshchiligida qo'shin yubordi. Qoraxitoylar qo'shini 1204-yilning oktyabr oyi boshlarida Anhudda Shahobiddin G'uriy qo'shinini to'liq mag'lubiyatga uchratdi. Shahobiddin G'uriy mol-mulkini

¹² A. S. Sagdullayev "O'zbekiston tarixi". Toshkent - "Fan" - 2018

bitim asosida topshirib, o'z davlatiga qaytib ketdi. Bu vaqtda G'ur sultonligida parokandalik va nizolar avjiga chiqqan edi. Bunday vaziyatda Shahobiddin G'uriy 1205-yil yanvar oyida xorazmshoh bilan tinchlik shartnomasini imzolab, Xurosonning bir qismini qaytarib berdi. G'uriylar davlatida vaziyat og'irlashib ketdi. Shahobiddin G'uriy o'zaro kurashlar qurboniga aylanib, 1206-yilning martida o'dirildi. Sultonning o'dirilishi G'uriylar davlatining yemirilishidan darak berar edi. G'uriylarning yangi sultoni deb e'lon qilingan Mahmud qo'lida bir paytlar g'uriylarga bo'ysunga hududlarning bir qismigina qoldi. G'uriylar xizmatida bo'gan noiblar va amirlar turli hududlarda o'z hukmronligini o'rnatdilar. Xorazmshoh g'uriylar davlatining zaif holga tushib qolganidan foydalanib, tez orada Balx, Hirot, Mozandaron va Seistonni qo'lga kiritdi. G'uriylar sultoni Mahmud xorazmshoh Muhammad talabiga ko'ra o'zini xorazmshohlar davlatining noibi deb e'lon qildi. U xorazmshoh nomini xutbaga qo'shib o'qitib, uning nomida tangalar zarb etdi. Xorazmshohga itoat ramzi sifatida bitta oq filhamda o'z xazinasidagi eng qimmatbaho buyumlarni jo'natdi. Bu esa G'uriylarning xorazmshohlarga qaram bo'lib qolganligini anglatar edi. 1216-yilga kelib esa G'ur hududi Xorazmshoh Alouddin Muhammad tomonidan to'liq bosib olinadi. G'uriylar davlati esa barham topadi.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak G'uriylar davlatining faoliyati qisqa bo'lsada, Ammo O'rta Osiyo, Fors va Hindiston yarim oroli tarixida muhim iz qoldirdi. Tahminan 1148-1216-yillarda hukmronlik qilgan bu sulola kuchsiz tog'li viloyatda mustaqil davlatga aylanish muvaffaq bo'lishdi. Biroq, sulolaning ichki nizolar, taxt vorisligidagi nizolar va Xorazmshohlarning kuchayishi natijasida G'uriylar saltanati zaiflashdi. 1216-yili Xorazmshohlar tomonidan G'ur hududining to'liq bosib olinishi bilan sulolaning siyosiy hukmronligiga barham berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Minhaj-I Siraj Juzjani. "Tabaqat-I Nasiri". Dehli. "Oriental Publishers, Booksellers"- 2004
2. Nazarbek Rahim. "Markaziy Osiyo ilk islomiy tarixdan lavhalar" Ilmiy – omabop nashr -2018
3. A. S. Sagdullayev "O'zbekiston tarixi". Toshkent -"Fan"- 2018.
4. A. M. Mannonov "Afg'oniston tarixi". Toshkent – "Barkamol fayz media" – 2018.
5. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov "Vatan tarixi". Toshkent – "Sharq" – 2010.
6. Salimov.T "Jahon tarixi O'rta asrlar davri " T-2014
7. Qodirov Z.M.,Xamidov X.X.,QalandarovM.S.,RashidovR.R. "Eron tarixi" T-2018